MILLIY MA’NAVIY YUKSALISH VA TARG‘IBOTDA AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI

Mualliflar: Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich [1], Ro‘zinov Baxtiyor Asqaraliyevich [2]
Affiliyatsiya: Tarix fanlari nomzodi, dotsent, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilari jamiyati a’zosi [1], Namangan davlat universiteti dotsenti [2]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23531292

ANNOTATSIYA

Maqolada milliy yuksalish omillari, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni, so‘nggi yillarda bu borada erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mafkura, ma’naviyat, targ‘ibot, yutuq, sport, chempion, axborot, mahalliy sharoit, taraqqiyot, hamjihatlik

ANNOTATION

This article examines the key factors contributing to national development, as well as the role and significance of the mass media in promoting national values and national identity. It also analyzes recent achievements in this field, existing challenges, and their distinctive features.

Keywords: ideology, spirituality, promotion, achievements, sports, champion, information, local conditions, development, solidarity

Bugun biz yashayotgan davr haqli ravishda “Axborot asri” deb atalmoqda. Darhaqiqat, mutaxassis olimlarning fikricha, bugun kim axborotga egalik qilsa, dunyoga ham egalik qiladi. Shu bois milliy ma’naviyat taraqqiyoti va uni turli mafkuraviy xurujlardan asrash masalasi ham axborot sohasi bilan chambarchas bog‘liq.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jurnalist va blogerlarning faoliyati sezilarli darajada kengaydi. Biroq bu faoliyatning sifati hamda milliy taraqqiyotimiz uchun ahamiyati borasida ayrim fikrlarni o‘rtoqlashishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Avvallari bilim va tarbiya berishning asosiy vositasi kitob bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik uning o‘rnini gazeta va jurnallar egalladi. Bugungi kunda esa bu borada zamonaviy media yetakchilikni qo‘lga oldi.

Axborot erkinligi sharoitida axborot tarqatuvchilar jamiyat hayotidagi muammoli masalalarni ko‘tarib chiqib, asosiy e’tiborni tanqidga qaratishga odatlanib qolishdi. Tanqid yaxshi, chunki u kelajakning “mevasi”. Ammo haddan ziyod tanqid ham to‘g‘ri emas, nazarimizda. Sababi ommaviy axborot vositalari, xususan, rangli matbuot orqali faqat tanqidiy mavzularni ko‘taraverish kishilarda tushkunlik

kayfiyatini uyg‘otadi, ijodkorlikka, kelajakka va ijtimoiy muhitga nisbatan ishonchsizlik paydo qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda xolis va haqqoniy faoliyat olib borayotgan blogerlarni qo‘llab-quvvatlash kerak. Ularning sa’y-harakatlari keyingi yillarda o‘z samarasini berdi. Masalan, bundan 20–25 yil avval qiz uzatish ancha qiyin bo‘lib qolgan edi: qiz tomonning kuyov tomon uchun ortiqcha sarf-xarajat qilishi urf darajasiga yetgan edi. Ijtimoiy tarmoqlarda bu holat keskin tanqid qilinavergach, hozir ancha tartibga tushdi. Sport musobaqalari g‘oliblari rag‘batlantirilib, ilm ahliga kam e’tibor berilayotgani tanqid qilinavergach, bu borada ham o‘zgarishlar yuz berdi.

Umuman olganda, axborotning sofligi, haqqoniyligi va xolisligi qonun bilan himoyalangan hamda majburiyat sifatida belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasida “Ommaviy axborot vositalari o‘zlari tarqatayotgan axborotning haqqoniyligi uchun axborot manbai va muallifi bilan birgalikda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar” deb ta’kidlangan [6].

Oyat va hadislarda ham tashabbus avvalo quyidan boshlanishi kerakligi uqtiriladi. Garchi oltita sahih hadis to‘plamida uchramasa-da, ba’zi ulamolar quyidagi hadisni keltiradilar: “Sizlar qanday bo‘lsangiz, sizlarga ana shunday insonlar rahbar etiladilar”. Qur’oni karimda esa shunday deyiladi: “To bir qavmning o‘zlari dillaridagi e’tiqodlarini va amallarini o‘zgartirmagunlaricha, albatta, Alloh taolo ularning ahvollarini o‘zgartirmaydi” (Ra’d surasi, 11-oyat) [1, 392-b.]. Ya’ni jamiyat hayotidan, kishilar va rahbarlardan shikoyat qiluvchilar avvalo o‘z holiga boqishi, o‘zlari risoladagidek bo‘lishi lozim. Bu esa inson ma’naviyati, e’tiqodi va bilim darajasi bilan chambarchas bog‘liq.

Ijtimoiy tarmoqlar butun dunyoni, jumladan, barchamizni yagona axborot tizimiga bog‘ladi. Natijada har kim tarixda bo‘lib o‘tgan voqealar, yutuq va kamchiliklar, bugungi holatlardan qisqa vaqt ichida xabardor bo‘lmoqda.

O‘zbek kontentidagi ma’lumotlar bilan tanishayotgan kishilarda yagona Vatan, millat, taqdirdoshlik tuyg‘ulari shakllanmoqda. Vatandoshlarimiz “hamma yerda xo‘roz bir xil qichqirishini”, tarixi, madaniyati va turmush tarzi bir ekanini anglab yetmoqdalar. Ya’ni Surxondaryoning chekka qishlog‘idagi vatandoshning muammolari Toshkent, Farg‘ona yoki Xorazmdagi yurtdoshlarinikidan farq qilmasligini his qilmoqdalar.

Shu o‘rinda blogerlar va axborot sohasi xodimlariga quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

1. Tanqid bilan yonma-yon bugungi kunning ijobiy tomonlarini ham ko‘rsatish.

Bunda bugun sportning barcha turlari bo‘yicha yuzlab jahon chempionlarimiz borligini, xalqaro maydonlarda O‘zbekiston bayrog‘i ular sharafiga ko‘tarilayotganini, vaholanki XX asrning 70–80-yillarida respublikadan barmoq bilan sanarli chempionlar chiqqan bo‘lsa, bugun ularning soni 1000 dan oshganini ko‘rsatib o‘tish kerak.

Ijtimoiy tarmoqlarning ta’sir mexanizmini payqash qiyin emas. Masalan, avvallari faqat sport musobaqalari g‘oliblari moddiy rag‘batlantirilgan bo‘lsa, hozir intellektual yo‘nalishdagi olimpiadalar g‘oliblariga ham shunday e’tibor qaratilmoqda. Bu borada ijtimoiy tarmoqlarda bildirilgan ko‘plab tanqidiy fikrlar bejiz ketmadi. Axir keyingi 3–4 yil ichida 100 ga yaqin o‘quvchimiz xalqaro fan olimpiadalarida oltin, kumush va bronza medallar sohibi bo‘ldi. Bunga ijtimoiy tarmoqlardagi faollik ham sabab bo‘ldi.

Masalan, 2026-yil 3-mayda Fransiyaning Nissa shahrida matematika, ingliz tili va mental arifmetika bo‘yicha o‘tkazilgan, 20 ga yaqin davlatdan 300 dan ortiq o‘quvchi qatnashgan musobaqada Toshkentdagi Al-Jabr xalqaro maktabining 37 nafar o‘quvchisidan 33 nafari sovrindor bo‘ldi. Natijalar quyidagicha: 7 nafari – I o‘rin, 8 nafari – II o‘rin, 14 nafari – III o‘rin, 3 nafari – oliy o‘rin, 1 nafari – “superchempion”. Olimpiadadan so‘ng o‘quvchilar Nissa – Monako – Parij – Shveysariya – Germaniya – Avstriya – Vengriya yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy-ma’rifiy sayohatda bo‘ldilar [7].

Shuningdek, 2017–2025-yillar oralig‘ida o‘zbekistonlik o‘quvchilar xalqaro fan olimpiadalarida quyidagi natijalarga erishdi: 2017–2022-yillarda 4 ta oltin, 13 ta kumush, 20 ta bronza, jami 37 ta medal; birgina 2025-yilning o‘zida 40 ta oltin, 78 ta kumush, 92 ta bronza, jami 210 ta medal [8]. Ikki o‘quvchiga 1 mlrd so‘mdan mukofot topshirildi. 2025-yilda g‘oliblarni taqdirlash uchun budjetdan salkam 12,5 mlrd so‘m ajratildi. O‘zbekistonning xalqaro olimpiadalardagi natijalari 2017-yilga nisbatan 2025-yilga kelib 14 barobar o‘sgan.

Ayniqsa, 2022–2026-yillarda O‘zbekistonda ilm-fan, xalqaro olimpiadalar va innovatsiyalar sohasida yutuq ko‘rsatgan yoshlarni rag‘batlantirish keskin kuchaydi. 2023-yilda xalqaro fan olimpiadalari g‘oliblari va ularning ustozlariga jami 1 mlrd 89 mln so‘mdan ortiq bir martalik pul mukofoti berildi. 2024-yilda nufuzli xalqaro olimpiadalarning 11 nafar medal sohibiga 1 mlrd 87 mln so‘mdan ortiq mukofot ajratildi. 2023–2024-o‘quv yilida O‘zbekiston o‘quvchilari xalqaro fan olimpiadalarida 128 ta medalni qo‘lga kiritdi. G‘oliblar hamda ularning ustozlarini rag‘batlantirish uchun davlat budjetidan 9 mlrd so‘m ajratildi. 2025-yildan ayrim olimpiada va innovatsion tanlovlar g‘oliblariga avtomobillar ham beriladigan bo‘ldi: “Yosh muhandislar” olimpiadasida 1-o‘rin sohiblariga 3 ta “Damas” avtomobili berildi, “Eng yaxshi g‘oya”, “Eng yaxshi loyiha”, “Eng yaxshi ixtiro” tanlovlari g‘oliblarining bir qismiga BYD elektromobillari topshirildi. 2025–2026-yillarda xalqaro olimpiada g‘oliblari uchun mukofot miqdori yana oshirildi: oltin medal uchun – 2500 BHM (1 mlrd so‘mdan ortiq), kumush medal uchun – 1500 BHM, bronza medal uchun – 1000 BHM.

2025-yilda xalqaro fan olimpiadalari g‘oliblari va ularning ustozlarini taqdirlash uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag‘ 2019-yildagi 780 mln so‘mga nisbatan qariyb 17,5 barobar ko‘p bo‘ldi [9].

2. Ijtimoiy-qurilish sohasidagi o‘zgarishlar: 2001–2016-yillarda ta’mirlangan va asfaltlangan yo‘llarning umumiy uzunligi taxminan 10–15 ming kilometrni tashkil etgan bo‘lsa, 2017–2026-yillarda “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Mening yo‘lim”

hamda ichki ko‘chalarni asfaltlash dasturlari doirasida har yili minglab kilometr yo‘l asfaltlanib, ularning umumiy uzunligi 50 ming kilometrdan oshdi.

3. Olimpiya chempionlari masalasi.

Mustaqil O‘zbekiston 1994-yildan buyon Olimpiya o‘yinlarida qatnashib kelmoqda. 2024-yilgacha O‘zbekiston sportchilari boks, dzyudo, erkin kurash, og‘ir atletika, taekvondo, fristayl chang‘i sporti kabi yo‘nalishlarda 19 ta olimpiya oltin medalini qo‘lga kiritdi. 2025-yilgi jahon chempionatida O‘zbekiston bokschilari 6 ta oltin medal sohibi bo‘ldi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston parasporti ham jadal rivojlandi: 2024-yilgi Paralimpiya o‘yinlarida terma jamoamiz 26 ta medalni qo‘lga kiritdi [10].

4. Milliy o‘zlikni va ibratli tarixni targ‘ib qilish.

Bu borada jadidlardan o‘rnak olsak arziydi. Jadidlar o‘z davrida faqat tanqid bilan cheklanmay, xalqni amalga oshirilayotgan ijobiy, xayrli ishlardan o‘rnak olishga, ularga ergashishga ham chaqirganlar. Masalan, namanganlik mulla Ishoqjonboy Mirsolihboy o‘g‘li farzandlarining xatna to‘yiga ajratgan mablag‘ining katta qismini maktab qurilishiga sarflagani haqida “Sadoyi Farg‘ona” gazetasida alohida xabar e’lon qilingan. Namanganning ziyoli, mo‘tabar boylaridan Mirzahamdam Og‘alikufning otalari ta’mirlagan masjid qoshidagi maktabni yangi usulda qayta qurmoqchi ekani ham mamnuniyat bilan qo‘llab-quvvatlangan [2]. Munavvar qori 1916-yil oxirlarida Toshkentda turkistonlik yoshlarning xorijda o‘qishi uchun mablag‘ to‘plash maqsadida yig‘ilish o‘tkazadi. 1917-yil 24-sentabrda o‘tkazilgan xuddi shunday yig‘ilishda Toshkent boylaridan 50–60 kishi ishtirok etadi. Munavvar qori masalani o‘rtaga qo‘ygach, suhbat tugamasdanoq uning qo‘liga pul tutqazadilar [3, 22-b.]. Bu xalqimizning saxovatpeshaligiga yorqin misoldir.

5. Milliy manfaatlarni xalqaro mediada himoya qilish.

Ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekistonni, o‘zbek xalqini, uning buyuk daholarini yerga uruvchi, kamsituvchi shaxslar va kanallarga bloger va mutaxassislarimiz o‘sha tilning o‘zida, ilmiy asosda, hissiyotga berilmasdan javob berishi kerak. Masalan, rus davlatchiligini barpo etish, saqlab qolish va dushmanlardan himoya qilishda o‘zbek xalqi ko‘rsatgan yordam va ta’sirni barcha davrlar misolida ko‘rsatib berish lozim.

XX asrning 20-yillarida Rossiyaning ocharchilik ro‘y bergan hududlaridagi millionlab kishilarning hayotini saqlab qolish uchun o‘zbekistonliklar oziq-ovqat mahsulotlari yuborib, beg‘araz yordam berganini, shuningdek, o‘sha hududlardan ochlarni O‘zbekistonga olib kelib, ularni qirilib ketishdan saqlab qolganini (bu borada A. Neverovning “Toshkent – non shahri” qissasi misolida) ko‘rsatib berish kerak [4, 172-b.].

Ikkinchi jahon urushi yillarida ko‘chirib keltirilganlar uchun yaratilgan sharoitlar, bolalar uylari haqida ma’lumot berish kerak. Masalan, urush yillarida birgina Namangan viloyatining o‘zida 11 ta bolalar uyi ochildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbekistonliklar Yevropa millatlariga mansub ikki millionga yaqin fuqaroni qabul qilgani, ularga boshpana bergani, yetimlarni bag‘riga olgani va buning evaziga hech narsa talab qilmagani, ayni paytda “mudofaa gektari-1” deb nomlangan maxsus maydonlarda kolxozchilar davlat mablag‘isiz, o‘z hisoblaridan hosil yetishtirib, frontga

jo‘natgani, “mudofaa gektari-2”dan olingan hosilni esa Rossiyaning okkupatsiyadan ozod qilingan hududlariga tekinga jo‘natgani, shuningdek, texnika vositalari, maktab va kutubxonalar uchun jihozlar hamda kitoblar yuborganini ko‘rsatib berish kerak [5, 43-b.]. Tarixiy-badiiy va hujjatli filmlardan o‘tkir, ta’sirli qisqa lavhalarni ijtimoiy tarmoqlarda rus tilida joylashtirish lozim. Toki bu orqali turkistonliklar, xususan, o‘zbeklar boqimanda emas, balki Rossiya uchun xaloskorlik vazifasini o‘tagani hammaga ma’lum bo‘lsin.

Befarq bo‘lishga haqqimiz yo‘q! Vatan hammamizniki! Bu o‘rinda millat tushunchasidan ko‘ra Vatan tushunchasi ustuvordir, chunki bu yutuqlar nafaqat o‘zbek millatiga, balki tojik, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, qoraqalpoq va turkmanlarga ham tegishlidir.

Axborot ig‘vogarligiga yetarlicha javob qaytarish lozim. Aks holda kamsitishlar, yerga urishlar davom etaveradi. Ya’ni ijtimoiy tarmoqlarda, xususan, YouTube kanallarida rus tilida ko‘rsatuvlar tayyorlab, javob qaytarish zarur. Buning uchun milliy ruhdagi, rus tilida ilmiy uslubda yaxshi so‘zlay oladigan, ravon nutqli mutaxassislar chiqish qilishi kerak. Bunday ig‘vogarliklarga o‘z vaqtida Shuhrat Barlos, Sherzodxon Qudratxo‘jayev kabi mutaxassislar munosib javob qaytargan. Biroq bunday javobni o‘nlab, yuzlab bilimli, salohiyatli kadrlar berishi kerak. O‘zbek tilidagi ma’lumotlarimiz asosan o‘zimiz uchun, mafkuraviy immunitetimizni kuchaytirishga xizmat qiladi, bu yaxshi. Ammo javobni O‘zbekistondan tashqaridagi, xususan, Rossiyadagi rusiyzabon auditoriya uchun ham tarqatishimiz kerak.

Masalan, Rossiyani mo‘g‘ullar istibdodidan Dmitriy Donskoy emas, Amir Temur ozod qilganini, mo‘g‘ullarning harbiy qudratini parokanda qilib, yo‘q qilgan afsonaviy, o‘ylab topilgan Kulikovo jangi emas, balki “Oltin O‘rda” deb atalmish, Yevroosiyoning o‘z davridagi eng ulkan va qudratli imperiyasini tiz cho‘ktirib, rus xalqini ozod qilgan Amir Temurning To‘xtamishxon bilan Qunduzcha hamda Terek daryosi bo‘yida olib borgan va g‘alaba qozongan janglari ekanini ta’kidlash lozim. Bu borada asosan dunyo va rus ilmiy jamoatchiligi tan olgan tarixchilarning asarlaridan foydalanish va ulardan iqtiboslar keltirish kerak. Masalan, N. Karamzin, N. Veselovskiy, I. Pavlov, M. Ivanin, V. Cherevanskiy, A. Yakubovskiy, akademik tarixchilar B. Grekov, V. Bartold, S. Tolstov va boshqalarning asarlaridan iqtibos keltirish mumkin.

Xullas, ommaviy axborot vositalari milliy yuksalishda, mamlakatimizning dunyo miqyosidagi obro‘-e’tiborini belgilashda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қуръони Карим оятлари маъноларининг изоҳли таржимаси (Таржима ва изоҳлар муаллифи: Шайх Муҳаммаджон мулло Рустам ўғли. Мавлавий ҳожи Ҳиндустоний).-Тошкент: Мовароуннаҳр, 2006.-Б.392.
2. Асир. Наманган тўйларини ислоҳи ва мактаб □□Садойи Фарғона.-1914.-20апр.
3. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар.-Тошкент: Маънавият, 2003.-Б.22.

4. Неверов А. Ташкент – город хлебный.-Москва-Ленинград: Земля и фабрика, 1924.- 172 с.
5. Ҳайдаров З. Наманган вилояти: ўтмиш ва бугун (1917-2013 йиллар) (монография).-Наманган: Наманган нашриёти, 2014.-Б.43.
6. https://lex.uz/ docs/52268 439-II-сон 12.12.2002. Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида
7. O‘zbekistonlik o‘quvchi qiz ingliz tili musobaqasida yevropaliklarni ortda qoldirdi — Kun.uz https://kun.uz/news/2026/05/04/ozbekistonlik-oquvchi-qiz-ingliz-tili-musobaqasida-yevropaliklarni-ortda-qoldirdi
8. https://www.gazeta.uz/uz/2025/12/17/olimpiada/ Фан олимпиадалари ғолиблари тақдирланди, икки ўқувчига 1 млрд сўмдан берилди (репортаж) – Ўзбекистон янгиликлари – Gazeta
9. https://gov.uz/uz/uzedu/news/view/110921 Халқаро ва минтақавий фан олимпиадалари ғолибларини тақдирлаш маросими
10. https://onews.uz/yangiliklar/boks-boyicha-jahon-chempionati-2025-ozbekiston/ Ўзбекистон бокс бўйича жаҳон чемпионатида Қозоғистондан кейин иккинчи ўринни эгаллади | Onews.uz